



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-98-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Tumanda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishini
ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 31 iyuldagি SQ-361-IV-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan hamda mazkur qaror xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotinqizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tomonidan muhokama qiliganligini e'tiborga olib xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 31 iyuldagи SQ-361-IV-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 31 iyuldagи SQ-361-IV-sonli qarori bilan:

- yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishini reyting baholash tartibi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga;

- hududlarni reyting baholashni amalga oshirish tartibi sxemasi 2-ilova (Nizomning 1-ilovasi)ga;

- Yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishini indikatorlar asosida reyting baholash tartibi 3-ilova (Nizomning 2-ilovasi)ga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini reyting baholash bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi 4-ilovaga muvofiq

tasdiqlansin.

4. Tuman komissiyasi (U.Choriyev)ga:

- tegishli ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirib borish;

- xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi kiritgan masalalarni xalq deputatlari tuman Kengashi majlislarida muhokama qilib borish hamda umumlashtirilgan ma'lumotlarni tegishinchaligiga xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli doimiy komissiyasiga taqdim etish topshirilsin.

5. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rribbosari U.Choriyevga Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (Z.Eshqulov) bilan birgalikda:

- yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili yoshlarga oid hududiy dasturlarni qabul qilish;

- har chorakda, tumanning alohida hududiy dasturlari ijrosi hamda reyting baholash uchun zarur bo'lgan umumlashtirilgan ma'lumotlarni xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalgaga oshirishda eng yuqori natija ko'rsatgan 3 ta (1, 2 va 3-o'rin) yoshlar ishlari bo'yicha mas'ul bo'lgan rahbar yoki hodimlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirib borish;

- har yili O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni munosabati bilan tuman yoshlar forumini tashkil qilish hamda ushbu tadbirda eng yuqori natijalarni qo'lga kiritgan tashkilot, korxona va muassasalarning yoshlar bilan samarali ishlash tajribasini tuman bo'yicha tatbiq etib borish choralarini ko'rish vazifalari topshirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Sattorova) hamda tuman hokimining o'rribbosari (U.Choriyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X